



O'ZBEKISTON DAVLAT XIZMATLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING SAMARADORLIK OMILLARI VA MUAMMOLARI TAHLILI

Abduvaliyev Shoxrux

Xalqaro Nordik universiteti

ORCID: 0009-0006-6831-0760

shohruxboyabduvaliyev@gmail.com

Xursanaliyev Asror

Xalqaro Nordik universiteti

ORCID: 0009-0003-3791-7541

asrorbekxursanaliyev119@gmail.com

Annotatsiya. So'nggi yillarda O'zbekistonda davlat boshqaruvi tizimida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish natijasida elektron hukumat infratuzilmasi bosqichma-bosqich shakllanmoqda. Tadqiqotning maqsadi davlat xizmatlarida raqamli transformatsiyaning samaradorlik omillarini aniqlash va uning iqtisodiy hamda tashkiliy ta'sirini baholashdan iborat. Metodologiyada tizimli, solishtirma va trend tahlil yondashuvlari qo'llanilib, 2017-2024-yillar oralig'idagi ochiq ma'lumotlar asosida O'zbekistonning raqamli rivojlanish ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, elektron xizmatlar hajmining oshishi boshqaruv shaffofligini va xizmatlar qulayligini kuchaytirgan bo'lsa-da, hududlar kesimidagi raqamli tengsizlik va kadrlar yetishmovchiligi samaradorlikni cheklab qolmoqda. Tadqiqotda Koreya, Daniya va Finlyandiya tajribalari asosida O'zbekiston uchun mos innovatsion boshqaruv yondashuvlari tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: raqamli transformatsiya, davlat xizmatlari, elektron hukumat, samaradorlik omillari, inson kapitali, innovatsion boshqaruv, xalqaro tajriba.

АНАЛИЗ ФАКТОРОВ ЭФФЕКТИВНОСТИ И ПРОБЛЕМ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ В ГОСУДАРСТВЕННЫХ УСЛУГАХ УЗБЕКИСТАНА

Абдувалиев Шохрух

Международный университет Нордик

Хурсаналиев Асрор

Международный университет Нордик

Аннотация. В последние годы в результате широкого внедрения цифровых технологий в систему государственного управления Узбекистана постепенно формируется инфраструктура электронного правительства. Цель исследования выявить факторы эффективности цифровой трансформации в государственных услугах и оценить её экономическое и организационное воздействие. Методология основана на системном, сравнительном и трендовом анализе с использованием открытых данных за 2017-2024 годы для анализа показателей цифрового развития Узбекистана. Результаты показывают, что расширение объёма электронных услуг повысило прозрачность управления и удобство обслуживания, однако региональное цифровое неравенство и нехватка кадров по-прежнему ограничивают эффективность. На основе опыта Республики Корея, Дании и Финляндии предложены инновационные подходы к государственному управлению, адаптированные для условий Узбекистана.

Ключевые слова: цифровая трансформация, государственные услуги, электронное правительство, факторы эффективности, человеческий капитал, инновационное управление, международный опыт.

ANALYSIS OF EFFICIENCY FACTORS AND PROBLEMS OF DIGITAL TRANSFORMATION IN PUBLIC SERVICES OF UZBEKISTAN

Abduvaliev Shokhrukh

International Nordic University

Khursanaliyev Asror

International Nordic University

Abstract. *In recent years, as a result of the wide implementation of digital technologies in the public administration system of Uzbekistan, the e-government infrastructure has been gradually formed. The purpose of the research is to identify the efficiency factors of digital transformation in public services and to assess its economic and organizational impact. The methodology employs systematic, comparative, and trend analysis approaches based on open data from 2017-2024 to analyze Uzbekistan's digital development indicators. The results show that while the expansion of electronic services has increased transparency and convenience of governance, digital inequality across regions and the shortage of qualified personnel continue to limit overall efficiency. Based on the experiences of Korea, Denmark, and Finland, the study recommends innovative governance approaches suitable for Uzbekistan.*

Keywords: *digital transformation, public services, e-government, efficiency factors, human capital, innovative governance, international experience.*

Kirish.

So'nggi yillarda davlat boshqaruvida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish global miqyosda barqaror tendensiyaga aylanmoqda. Raqamli transformatsiya jarayonlari davlat xizmatlarini soddalashtirish, byurokratik to'siqlarni kamaytirish, fuqarolarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va boshqaruv samaradorligini kuchaytirish orqali iqtisodiy rivojlanishga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Xalqaro tadqiqotlar natijalari ham raqamli boshqaruv tizimlari davlat xizmatlari sifatini yaxshilash, korrupsiyani kamaytirish va ochiqlik darajasini oshirishda muhim vosita ekanini ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda elektron hukumat tizimini rivojlantirish, davlat xizmatlarini to'liq raqamli shaklga o'tkazish hamda fuqarolarga qulay elektron muhit yaratish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida my.gov.uz, One ID, data.gov.uz va boshqa milliy platformalar joriy etildi. Ushbu tizimlar orqali aholiga interaktiv xizmatlar ko'rsatilishi davlat boshqaruvida shaffoflikni, tezkorlikni va hisobdorlikni ta'minladi. Shu bilan birga, ayrim hududlarda internet infratuzilmasining notekis rivojlanishi, raqamli savodxonlik darajasining pastligi hamda malakali IT-mutaxassislar yetishmovchiligi jarayon samaradorligiga ma'lum darajada ta'sir etmoqda.

Xalqaro reytinglar ham O'zbekistonning raqamli hukumat sohasida barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda. BMTning E-Government Development Index (EGDI) 2024-yilgi natijalariga ko'ra, mamlakat 63-o'rinni egallab, so'nggi yillarda bir necha pog'onaga yuqorilgan. Jahon bankining GovTech Maturity Index (GTMI) hisobotida ham O'zbekiston davlat boshqaruvi tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha mintaqadagi ilg'or davlatlar qatoriga kirgan. Bu natijalar mamlakatda raqamli hukumat tizimining shakllanayotganini, fuqarolar va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar yangi sifat bosqichiga o'tganini ko'rsatadi. Shunga qaramay, raqamli transformatsiyaning iqtisodiy va institutsional samaradorligi masalasi hali to'liq o'rganilmagan. Ko'plab ilmiy ishlanmalar texnologik

o'zgarishlarni tahlil qilgan bo'lsa-da, xizmat sifati, foydalanuvchi faolligi, inson kapitali va xalqaro ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik yetarlicha yoritilmagan.

Shu bois ushbu tadqiqotning maqsadi — O'zbekiston davlat xizmatlarida raqamli transformatsiyaning samaradorlik omillarini aniqlash, uning iqtisodiy, tashkiliy va ijtimoiy ta'sirini empirik baholash hamda ilg'or xorijiy modellar asosida takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlashdan iboratdir.

Adabiyotlar sharhi.

So'nggi yillarda davlat boshqaruvida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish global tendensiyaga aylandi. UN DESA (2023) xalqaro tadqiqotlarda raqamli transformatsiya davlat xizmatlari sifatini oshiruvchi, korrupsiyani kamaytiruvchi va iqtisodiy samaradorlikni kuchaytiruvchi omil sifatida e'tirof etiladi. Jahon bankining (2022) GovTech Maturity Index hisobotida esa raqamli hukumatning muvaffaqiyati nafaqat texnologik infratuzilma, balki inson kapitali va boshqaruv madaniyatiga ham bevosita bog'liq ekani ta'kidlangan.

O'zbekistonda oxirgi yillarda elektron hukumat tizimi jadal rivojlanib, my.gov.uz, data.gov.uz va One ID platformalari orqali aholiga interaktiv xizmatlar ko'rsatilmoqda. Sabirov va Abdullayev (2023) o'z tadqiqotlarida bu tizimlarning davlat boshqaruvidagi soddalik va shaffoflikni oshirganini, biroq ayrim hududlarda raqamli savodxonlik va texnik infratuzilma yetarli emasligini qayd etgan. "O'zbekiston-2030" strategiyasida esa davlat xizmatlarida sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyalarini joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan (Farmon, 2020).

OECD (2021) tashkilot tadqiqotlarida Daniya, Koreya va Finlyandiya tajribalari raqamli boshqaruvning eng ilg'or modellaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Daniyada "Digital-by-default" siyosati barcha xizmatlarni 100 foiz onlayn shaklga o'tkazgan, Koreyada esa AI Digital Assistant va Zero Paper Policy orqali inson omilini minimal darajaga tushirishga erishilgan. Bu tajribalar O'zbekiston uchun namuna bo'lib xizmat qilmoqda, biroq raqamli infratuzilmaning notekis rivojlanishi, internet tezligi va IT-kadrlar tanqisligi UNDP (2024) tomonidan cheklov sifatida qayd etilgan.

Aghion va Howitt (2021), shuningdek, Acemoglu va Robinson (2022) asarlarida raqamli transformatsiyaning muvaffaqiyati iqtisodiy institutlarning sifatiga bog'liq ekani ta'kidlanadi. Demak, texnologik modernizatsiya o'z-o'zidan samaradorlikni kafolatlamaydi – u ochiq boshqaruv, ishonch va ijtimoiy kapital bilan uyg'unlashgandagina natija beradi.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiyaning samaradorligi nafaqat texnologik, balki institutsional omillarga ham bog'liq. Shu asosda ushbu tadqiqot quyidagi metodologik yondashuv asosida olib borildi. Shu bois ushbu tadqiqot O'zbekiston davlat xizmatlarida raqamli transformatsiyaning iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini empirik baholash hamda ilg'or xorijiy modellarga moslashtirish yo'nalishlarini aniqlashga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot metodologiyasi davlat xizmatlarida raqamli transformatsiya jarayonlarini tizimli va analitik yondashuv asosida o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotning ilmiy asosida davlat boshqaruvida raqamli texnologiyalarni joriy etish nafaqat texnik jarayon, balki iqtisodiy, tashkiliy va ijtimoiy o'zgarishlarni ham qamrab oluvchi kompleks jarayon sifatida talqin qilinadi. Shu sababli tahlilda tizimli yondashuv bilan bir qatorda induktiv va deskriptiv metodlar uyg'un qo'llanilgan bo'lib, ular amaliy ma'lumotlardan umumiy xulosalar chiqarish imkonini bergan.

Tadqiqot ma'lumot bazasi ikki yo'nalishda shakllantirildi. Birinchidan, Raqamli texnologiyalar vazirligi, Adliya vazirligi hamda my.gov.uz portalining ochiq statistik ma'lumotlari birlamchi manba sifatida foydalanildi. Ushbu manbalar davlat xizmatlarining raqamlashtirilish darajasi, foydalanuvchi soni, xizmat turlari va ularning o'sish sur'atlarini

aniqlash imkonini berdi. Ikkinchidan, BMTning E-Government Development Index, Jahon bankining "GovTech Maturity Index" hisobotlari hamda "O'zbekiston – 2030 strategiyasi" konsepsiyasi ikkilamchi manba sifatida o'rganildi. Ular orqali O'zbekistonning xalqaro reytinglardagi o'rni, davlat raqamli siyosatining strategik yo'nalishlari va xorijiy tajriba bilan solishtirish imkoniyati ta'minlandi. Tahlil jarayonida bir nechta metodlardan foydalanildi. SWOT-tahlil yordamida davlat xizmatlari tizimining kuchli va zaif tomonlari, mavjud imkoniyatlar hamda xavf omillari aniqlangan. Solishtirma tahlil orqali O'zbekiston tajribasi Estoniya, Janubiy Koreya Respublikasi va Finlyandiya hamda Qozog'iston kabi ilg'or raqamli boshqaruvga ega davlatlar bilan qiyoslab ko'rib chiqildi. Shuningdek, 2017–2025*-yillar oralig'idagi my.gov.uz portali statistikasi asosida trend tahlil o'tkazilib, elektron xizmatlar sonining o'sish dinamikasi, foydalanuvchilarning raqamli faolligi va xizmatlardan foydalanish ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Bundan tashqari, rasmiy hujjatlar va normativ bazalar ustida kontent-tahlil usuli qo'llanib, davlat siyosatidagi asosiy islohot yo'nalishlari ajratib olindi. 2025*-yil uchun malumotlar birinchi yarimyllikka oid.

Ushbu tadqiqotda quyidagi gipotezalar ilgari surilgan:

H1. Davlat xizmatlarining elektron shaklga o'tish darajasi ortgani sari davlat boshqaruvi samaradorligi va xizmatlardan foydalanish qulayligi oshadi.

H2. Elektron xizmatlar soni bilan foydalanuvchilar soni o'rtasida ijobiy korrelyatsiya mavjud bo'lib, foydalanuvchilar sonining o'sishi raqamli faollik darajasini oshiradi.

H3. O'zbekistonning raqamli davlat xizmatlari tizimi rivojlangan mamlakatlar (Koreya, Daniya, Finlyandiya) modeliga yaqinlashmoqda, biroq infratuzilma va inson kapitali omillari to'liq uyg'unlashmagani samaradorlikni cheklaydi.


Ushbu gipotezalar asosida o'tkazilgan tahlillar O'zbekiston davlat xizmatlarida raqamli transformatsiya samaradorligini aniqlash, mavjud muammolarni baholash va ularni bartaraf etish yo'nalishlarini taklif etishga qaratilgan. Tadqiqot bosqichlari izchil tarzda qurilgan: avvalo 2017–2024-yillar davomida davlat xizmatlarini raqamlashtirish sohasida amalga oshirilgan islohotlar o'rganilgan; so'ngra elektron xizmatlar hajmi, foydalanuvchilar soni va tizim samaradorligi bo'yicha statistik tahlil olib borilgan; keyinchalik xalqaro reytinglar bilan taqqoslash asosida O'zbekistonning raqamli rivojlanish bosqichi baholangan; nihoyat, muammolar aniqlanib, amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning ayrim cheklovlari ham mavjud. Hududlar kesimidagi ma'lumotlarning to'liq ochiq emasligi, raqamli savodxonlik darajasi bo'yicha yagona statistik bazaning yo'qligi hamda xalqaro metodologiyalar bilan o'lchashdagi tafovutlar tahlil aniqligiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan. Shunga qaramay, mavjud ochiq ma'lumotlar va xalqaro hisobotlarga tayangan holda tadqiqotning ishonchliligi saqlab qoling.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

2017–2025-yillar oralig'ida O'zbekiston davlat xizmatlarining raqamlashtirish jarayonlari izchil faollashgani kuzatildi. My.gov.uz platformasi orqali taqdim etilayotgan elektron xizmatlar soni 2017-yildagi 49 tadan 2025-yilda 775 taga yetib, 15 baravarga oshgan. Bu o'sish davlat xizmatlarini elektron shaklga o'tkazish siyosatining izchil amalga oshirilayotganini ko'rsatadi.

Foydalanuvchilar soni ham 2017-yildagi 0,03 milliondan 2025-yilda 11,6 million kishigacha yetgan bo'lib, aholining raqamli xizmatlardan foydalanish darajasi 380 martadan ortiq oshganini anglatadi. Elektron xizmatlar va foydalanuvchilar sonining o'sish sur'atlari 1-jadvalda keltirilgan.



1-rasm. Mavjud elektron xizmatlar sonining o'sish dinamikasi (2017-2025*)

Manba: my.gov.uz ochiq ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

1-jadval

Elektron xizmatlar va foydalanuvchilar sonining o'sish sur'atlari (2017-2025*)

Yil	Mavjud elektron xizmatlar soni (dona)	Elektron foydalanuvchilar soni (mln. kishi)	Elektron xizmatlar o'sishi (%)	Foydalanuvchilar o'sishi (%)
2017	49	0,03	-	-
2018	127	0,06	259,18	200,00
2019	173	0,19	136,22	316,67
2020	218	0,37	126,01	194,74
2021	300	1,00	137,61	270,27
2022	368	4,00	122,67	400,00
2023	585	7,50	158,97	187,50
2024	719	10,00	122,91	133,33
2025*	775	11,60	107,79	116,00

Manba: my.gov.uz ochiq ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

Trend tahlili natijalari shuni ko'rsatadiki, 2018–2020-yillarda o'sish sur'atlari eng yuqori bo'lgan (elektron xizmatlarda 126–259%, foydalanuvchilarda 200–316%), bu davr davlat xizmatlarini raqamlashtirishning faol bosqichiga to'g'ri keladi. 2021–2025-yillarda o'sish sur'atlari barqarorlashgan bo'lib, tizimning to'yinganlik bosqichiga o'tganini bildiradi.

Elektron xizmatlar soni va foydalanuvchilar soni o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash maqsadida korrelyatsiya tahlili o'tkazildi. Natijalarga ko'ra, o'zaro bog'liqlik koeffitsienti (r) 0,979 ni tashkil etdi, bu esa kuchli ijobiy bog'liqlik mavjudligini bildiradi. Ya'ni, elektron xizmatlar soni ortgani sari foydalanuvchilar soni ham mutanosib tarzda oshib bormoqda.

Quyidagi jadvalda bu bog'liqlik ko'rsatilgan:


2-jadval

Elektron xizmatlar soni va foydalanuvchilar soni o'rtasidagi

korrelyatsiya matritsasi

	Elektron xizmatlar soni (dona)	Foydalanuvchilar soni (mln kishi)
Elektron xizmatlar soni (dona)	1	
Foydalanuvchilar soni (mln kishi)	0,979	1

Manba: my.gov.uz ochiq ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.



2-rasm. Elektron foydalanuvchilar sonining o'sish dinamikasi (2017–2025*)

Manba: my.gov.uz ochiq ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Bu natijalar H₂ gipotezasini ("foydalanuvchilar soni ortgan sari raqamli xizmatlardan foydalanish faolligi ham ortadi") to'liq tasdiqlaydi. Shuningdek, o'sish trendlari asosida H₁ gipotezasi ham tasdiqlanadi, ya'ni elektron xizmatlar sonining ortishi davlat boshqaruvi samaradorligi va xizmat ko'rsatish qulayligini oshirish bilan bevosita bog'liqdir. Jadval va grafiklardan ko'rinadiki, 2021–2023-yillarda o'sish eng keskin bo'lgan. Bu "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasining birinchi bosqichi, One ID tizimi joriy etilishi va pandemiyadan keyingi masofaviy xizmatlarga talabning ortishi bilan bog'liq.

3-jadval

O'zbekiston davlat xizmatlarining raqamli transformatsiyasi bo'yicha SWOT tahlil

Yo'nalish	Mazmuni
Kuchli tomonlar (Strengths)	- My.gov.uz portali orqali 775 dan ortiq xizmat taqdim etilishi. - One ID tizimi orqali yagona identifikatsiya mexanizmi (11,6 mln foydalanuvchi). - Yagona billing tizimi orqali markazlashtirilgan to'lovlar (50 mln+ tranzaksiya). - E-hujjat tizimi ish yuritishni 50% tezlashtirgan. - Elektron xizmatlar ulushi 82% ga yetgani va 149,5 mlrd so'm iqtisodiy samaradorlik keltirgani.
Zaif tomonlar (Weaknesses)	- Internet infratuzilmasining notekis rivojlanishi (qishloq joylarda 64% qamrov). - Raqamli savodxonlik darajasi past - Kadrlar malakasining yetishmasligi. - Ba'zi xizmatlarda byurokratik elementlar saqlanib qolgan.
Imkoniyatlar (Opportunities)	- Sun'iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etish. - Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish (UNDP, WB, UN-ESCAP). - Mobil ilovalar orqali xizmatlarni 100% raqamlashtirish. - Ochiq ma'lumotlar bazalarini rivojlantirish orqali shaffoflikni oshirish.
Tahdidlar (Threats)	- Kiberxavfsizlikka tahdidlar (2024-yilda 15% oshgan). - Malakali IT-mutaxassislarining migratsiyasi. - Raqamli bo'shliq – texnologiyaga kirish imkoniyati past guruhlar mavjudligi.

Manba: muallif tahlili, Raqamli texnologiyalar vazirligi (2025), UNDP (2024).

Umuman olganda, O'zbekistonning raqamli davlat tizimi kuchli texnologik poydevorga ega, biroq ijtimoiy va infratuzilmaviy zaifliklar uni to'liq samaradorlikka chiqishdan to'xtatmoqda. Shuning uchun strategik bosqichda inson kapitalini rivojlantirish, kiberxavfsizlikni kuchaytirish va mahalliy IT-sektorni davlat buyurtmalariga faol jalb etish zarur.

SWOT tahlil natijalariga ko'ra, kuchli tomonlar tizimning barqaror o'sish asosini tashkil etmoqda. Ammo zaifliklar — xususan, kadrlar malakasi, infratuzilma va kiberxavfsizlik — tizimni to'liq samaradorlikka chiqishdan cheklab turibdi. Shu sababli 2030-yilgacha bo'lgan bosqichda inson kapitaliga sarmoya kiritish va xavfsizlik infratuzilmasini mustahkamlash ustuvor yo'nalish sifatida belgilanmoqda.

4-jadval

E-Government Development Index (EGDI) va E-Participation Index (2024)

Mamlakat	EGDI (2024)	Reyting	E-Participation	O'sish (2022-2024)	Kategoriya
Daniya	0.9847	1	0.9863	Barqaror	Juda yuqori
Janubiy Koreya	0.9679	4	0.9726	+1	Juda yuqori
Finlyandiya	0.9575	9	0.8904	+7	Juda yuqori
Qozog'iston	0.9009	24	0.8493	+4	Juda yuqori
O'zbekiston	0.7999	63	0.6986	+6	Yuqori

Manba: United Nations E-Government Survey (2024).

O'zbekiston 2024-yilda EGDI reytingida 63-o'rinni egallab, 2022-yilga nisbatan 6 pog'onaga ko'tarilgan. Bu davlat xizmatlarini raqamlashtirishda sezilarli natijalarga erishilganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ilg'or davlatlar (Daniya, Koreya, Finlyandiya) bilan qiyoslaganda, infratuzilma, kiberxavfsizlik va AI integratsiyasi bo'yicha hali o'sish imkoniyati katta.

5-jadval

Mamlakatlar kesimidagi taqqoslash mezonlari

Mezoni	Daniya	Janubiy Koreya	Finlyandiya	Qozog'iston	O'zbekiston
Raqamli xizmatlar ulushi (%)	99	98	96	88	82
Aholi qamrovi (%)	100	98	97	85	60
AI integratsiyasi	To'liq	To'liq	Qisman	Boshlang'ich	Boshlang'ich
Kiberxavfsizlik darajasi	Juda yuqori	Juda yuqori	Yuqori	O'rta	O'rta

Manba: UN E-Government Survey 2024; World Bank Digital Progress Report (2024).

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, raqamli hukumat tizimlarida muvaffaqiyatning asosiy omillari integratsiyalashgan platformalar, yagona identifikatsiya tizimlari va foydalanuvchi markazli xizmatlardir. Daniya va Finlyandiya "digital-by-default" tamoyiliga asoslangan, ya'ni barcha xizmatlar faqat onlayn shaklda ko'rsatiladi. Janubiy Koreya esa sun'iy intellekt va big-data asosidagi avtomatlashtirilgan xizmatlar orqali boshqaruv samaradorligini oshirgan.

Qozog'iston mintaqaviy model sifatida mobil hukumat (m-gov) konsepsiyasini faol joriy etgan. O'zbekistonning my.gov.uz, One ID va Yagona billing tizimlari integratsiyasi ushbu ilg'or tajribalarni mahalliy sharoitga mos holda amalga oshirish yo'lida muhim bosqich bo'ldi.

Shu bilan birga, foydalanuvchi qamrovi, kiberxavfsizlik va AI integratsiyasi bo'yicha O'zbekiston hali Koreya va Daniya darajasiga yetmagan, ammo bu yo'nalishda izchil o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda.

6-jadval

E-Government tizimlari bo'yicha amaliy taqqoslama (funktional va texnologik asosda)

Davlat	Asosiy raqamli platformalar	Texnologik xususiyatlar	O'zbekistonga o'xshashlik / farqi
O'zbekiston	my.gov.uz, One ID, Yagona billing tizimi, Data.gov.uz (ochiq ma'lumotlar portali)	Biometrik autentifikatsiya, yagona kirish tizimi (SSO), elektron imzo, to'lov tizimlari integratsiyasi, mobil ilova (Android/iOS)	Kuchli integratsiya mavjud, ammo foydalanuvchi interfeysi va xizmat sifati bo'yicha hali Estoniya yoki Daniyaga yetmagan. Mobil xizmatlar soni tez o'smoqda.
Qozog'iston	eGov.kz, e-Otinish, Open Government Portal, Digital Family Card	Blockchain asosida ma'lumot almashish, "Super App" konsepsiyasi (barcha xizmatlar bitta ilovada), AI yordamida hujjatlarni to'ldirish	O'zbekistonga nisbatan raqamli integratsiya chuqurroq. Boshqa tizimlarga (bank, sog'liqni saqlash, soliq) API orqali ulanadi.
Janubiy Koreya	Gov.kr, Minwon24, AI Digital Assistant, Data Go	Sun'iy intellekt yordamida xizmat ko'rsatish, "Zero Paper" siyosati, 99% xizmatlar onlayn, kiberxavfsizlikni blokcheyn asosida boshqarish	Koreya tajribasi O'zbekiston uchun "ideal model" sifatida olinadi. Bizda bu texnologiyalar hozir sinov bosqichida (masalan, AI chatbotlar my.gov.uz'da).
Finlyandiya	Suomi.fi, Aurora AI, Kansalaisneuvonta (AI yordamchi)	AI asosida "proaktiv xizmatlar": fuqaroga kerakli xizmatni o'zi taklif qiladi. Elektron ID kartasi butun tizimda ishlaydi.	O'zbekistonda ham One ID bu yo'nalishda ishlayapti, lekin hali davlat organlari o'rtasida to'liq sinxronizatsiya yo'q.
Daniya	Borger.dk, NemID, MitID, Digital Post	"Digital-by-default" tamoyili: barcha xizmatlar faqat onlayn. E-mail o'rniga "Digital Post" tizimi ishlaydi, AI yordamida avtomatik hujjat aylanishi.	Daniya darajasi – 100% raqamli hukumat. O'zbekistonda bu modelning 82% ga yaqinlashgan bosqichi kuzatilmoqda.

Manba: my.gov.uz ochiq ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Mazkur jadval EGDİ reyting jadvali (7-jadval) bilan o'zaro bog'liq bo'lib, u O'zbekistonning texnologik imkoniyatlari va boshqa ilg'or davlatlar bilan amaliy jihatdan qanchalik yaqinlashganini ko'rsatadi. Taqqoslashdan ko'rinadiki, O'zbekiston texnologik integratsiya darajasi bo'yicha Qozog'iston bilan bir ligaga kirgan, biroq AI va "digital-by-default" tamoyili bo'yicha hali Koreya va Daniyaga yaqinlashmoqda.

7-jadval

2030-yilgacha prognoz ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	2025	2030 prognozi	O'sish (%)
Raqamlashtirilgan xizmatlar ulushi	82%	100%	+18
Foydalanuvchilar soni (One ID)	11,6 mln.	20 mln.	+72
EGDI reytingi	63	45	+18
Internet qamrovi	64%	100%	+36
Raqamli savodxonlik darajasi	50%	90%	+40

Manba: Digital Uzbekistan-2030 Strategy (2020); UNDP (2025).

Raqamli transformatsiya jarayonlari 2020–2025-yillarda sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilgan. "Raqamli O'zbekiston–2030" strategiyasi doirasida 2025-yilda elektron xizmatlar ulushi 82% ga, foydalanuvchilar soni esa 11,6 mln kishiga yetgan.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston davlat xizmatlarining raqamli transformatsiyasi 2017–2025 yillar oralig'ida barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Agar 2017-yilda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida (my.gov.uz) atigi 49 ta elektron xizmat mavjud bo'lgan bo'lsa, 2025-yilga kelib ularning soni 775 taga yetgan. Shu bilan birga, foydalanuvchilar soni 0,03 milliondan 11,6 million nafargacha o'sib, bu ko'rsatkich 380 martadan ortiq o'sishni bildiradi.

Trend tahlili natijalariga ko'ra, 2021–2023 yillar davrida o'sish eng yuqori bo'lgan. Bu davrda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida birinchi bosqich islohotlari amalga oshirilgan, One ID tizimi keng joriy etilgan va pandemiya sharoitida masofaviy xizmatlarga talab ortgan.

Korrelyatsiya tahlili natijalari ($r=0.979$) elektron xizmatlar soni va foydalanuvchilar o'rtasida kuchli ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Bu shuni anglatadiki, raqamli xizmatlar sonining ortishi foydalanuvchi faolligini ham sezilarli darajada oshirgan.

SWOT tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekistonning kuchli tomonlari – my.gov.uz, One ID va Yagona billing tizimlarining mavjudligi; zaif tomonlari – internet infratuzilmasining notekisligi va kadrlar malakasining pastligi; imkoniyatlar – sun'iy intellekt integratsiyasi va xalqaro hamkorlik; tahdidlar esa – kiberxavfsizlik va malakali IT-mutaxassislarining migratsiyasi bilan bog'liq.

Xalqaro taqqoslash natijalariga ko'ra, O'zbekiston EGDI reytingida 2022-yilga nisbatan 6 pog'ona yuqorilab, 63-o'ringa chiqdi. Bu davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi bo'yicha sezilarli taraqqiyotni bildiradi, biroq Daniya, Janubiy Koreya va Finlyandiya kabi yetakchi davlatlarga nisbatan infratuzilma va foydalanuvchi qamrovi jihatidan oraliq bosqichda ekanini ko'rsatadi.

Tahlil natijalariga tayangan holda, O'zbekiston davlat xizmatlarining raqamli transformatsiyasini yanada samarali amalga oshirish uchun quyidagi uchta ustuvor yo'nalishda taklif beriladi:

1. Sun'iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etish. AI yordamida foydalanuvchilarning murojaatlarini avtomatik yo'naltirish, hujjatlarni to'ldirish va xizmatlarni proaktiv tarzda taklif qilish imkoniyati yaratiladi. Kutilayotgan natija: xizmat ko'rsatish tezligi 40–50% ga qisqaradi, inson omiliga bog'liqlik kamayadi, foydalanuvchi qoniqish darajasi sezilarli oshadi.

2. Internet infratuzilmasini modernizatsiya qilish. Ayniqsa qishloq va chekka hududlarda optik tolali tarmoqlarni kengaytirish orqali tezkor internet qamrovi 100% ga yaqinlashtirilishi kerak. Kutilayotgan natija: davlat xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 11,6 milliondan 20 million nafargacha yetadi, raqamli tafovut qisqaradi va EGDI reytingida kamida 10 pog'onaga o'sish ta'minlanadi.

3. Foydalanuvchi ishonchini oshirish. One ID tizimi asosida shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini mustahkamlash, xizmatlar sifatini baholash tizimini joriy etish va shaffoflikni oshirish zarur. Kutilayotgan natija: foydalanuvchi ishonchi kuchayadi, xizmatlardan foydalanish chastotasi oshadi, korrupsiya xavfi 20–25% gacha kamayadi.

4. Xalqaro indeks larni hududiy darajada moslashtirish.

Hududlar kesimidagi raqamli transformatsiya jarayonlarini aniq baholash uchun xalqaro indeks lar metodologiyasini milliy va hududiy sharoitga moslashtirish lozim. Bu orqali O'zbekiston viloyatlari bo'yicha raqamli rivojlanish reytingi shakllantiriladi, past ko'rsatkichga ega hududlarda maqsadli dasturlar ishlab chiqiladi.

Kutilayotgan natija: hududlar kesimidagi raqamli tafovutlar qisqaradi, raqamli iqtisodiyotga o'tish tezlashadi, boshqaruvning samaradorligi oshadi.

Tadqiqotning asosiy gipotezalari empirik tahlillar asosida **to'liq tasdiqlandi**:

- **H₁ gipoteza** – elektron xizmatlar sonining o'sishi iqtisodiy va tashkiliy samaradorlikni oshiradi – **trend va korrelyatsiya natijalari bilan tasdiqlandi**.

- **H₂ gipoteza** – foydalanuvchilar soni ortgan sari raqamli xizmatlardan foydalanish faolligi ham ortadi – **statistik dalillar bilan isbotlandi**.

- **H₃ gipoteza** – xalqaro reytinglardagi ijobiy o'sish tendensiyasi O'zbekistonning raqamli rivojlanish siyosati bilan uyg'un – **EGDI ma'lumotlari bilan tasdiqlandi**.

Umuman olganda, O'zbekiston 2017–2025 yillar davomida davlat xizmatlarini raqamlashtirishda izchil yutuqlarga erishgan, biroq infratuzilma va inson kapitali sohasidagi muammolarni bartaraf etish orqali 2030-yilgacha dunyoning 50 ta ilg'or raqamli davlatlari qatoriga kirish salohiyatiga ega.

Adabiyotlar/Адабиятлар/Reference:

Acemoglu, D., & Robinson, J. A. (2022). *The Narrow Corridor: States, Societies, and the Fate of Liberty*. New York: Penguin Books.

Aghion, P., & Howitt, P. (2021). *The Economics of Growth*. Cambridge, MA: MIT Press.

Farmon. (2020) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida. Lex.uz: 5099-son.

My.gov.uz. (2024). O'zbekiston davlat xizmatlarining raqamlashtirilish statistikasi. <https://my.gov.uz>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2020). "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida. Lex.uz: 5099-son.

Sabirov, A., & Abdullayev, B. (2023). *O'zbekiston davlat boshqaruvida elektron hukumat tizimining rivojlanish bosqichlari*. Tashkent: Xalqaro Nordik Universiteti nashriyoti.

United Nations Department of Economic and Social Affairs (UN DESA). (2023). *E-Government Survey 2023: Leveraging Digital Technologies for Sustainable Development*. New York: United Nations.

United Nations Development Programme (UNDP). (2023). *Digital Transformation in Public Administration: Policy Brief*. New York: United Nations Development Programme.

United Nations Development Programme (UNDP). (2024). *Digital Governance and Inclusion in Central Asia: Regional Overview*. New York: UNDP.

United Nations. (2024). *E-Government Development Index (EGDI) Report 2024*. New York: United Nations Department of Economic and Social Affairs. <https://publicadministration.un.org/egovkb>.

World Bank. (2023). *GovTech Maturity Index: The State of Public Sector Digital Transformation*. Washington, DC: World Bank. <https://www.worldbank.org>.